

DEVIANT BEHAVIOR PROBLEMS IN ADOLESCENTS SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS

Akmal Murodilloyevich Ziyodov

Samarkand regional regional center for retraining and advanced training of public educators to
organize continuous vocational training department designer

Annotation

The article proposes the socio-psychological aspects of adolescents, and also consider the problems of deviant behavior.

Keywords: socio-psychological aspects, teenagers, deviant, behavior, information.

Ijtimoiy maskanlar ichida sog'lom iqlimga ega bo'lgan oila insonni har qanday salbiy qirralarini bartaraf etishga, kuchli psixologik zo'riqishlardan holi bo'lishini ta'minlashga va ertangi kunga bo'lgan ishtiyoq, ishonchini paydo qilishga undovchi hilqatdir. Ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni fe'l-atvori, insoniy fazilatlari, xohish-istaklari oiladagi mavjud muhit ta'sirida shakllanib boradi. Oila muhitini, ma'naviy iqlimini ota-onaning xulqi, oila ilmiga xos bilimdonligi tashkil qilsa, iqtisodiy ta'minotini nafaqat otaning sa'y-xarakatlari, balki onaning egallagan kasb-kori orqali qo'shadigan ulushi ham tashkil qiladi. Bugungi kunda oila mustahkamligi ta'minlanishida oila qurish pallasidagi yoshlarning mustaqil ravishda ma'lum kasb egasi bo'lishi, davlat siyosati doirasida e'tiborga olinib, eng muhim omil sifatida baholanmoqda.

Shaxs kamolotida xulq-atvorni ongli boshqara olish, ijtimoiy voqelikka adekvat munosabat bildirish murakkab jarayon bo'lib, bu inson ichki ruhiy dunyosi qay darajada shakllanganligini ifodalaydi. Buning uchun esa yoshlar o'z xulq-atvorini ongli nazorat qila olishlarini shakllantirishda huquqiy madaniyatni mezon sifatida tarkib toptirmog'imiz lozim. Huquqiy madaniyat huquqiy tarbiyalashdan boshlanadi. Huquqiy tarbiya avvalo oila davrasidagi tashkil etiladigan suhbatlarda tarkib topib, keyinchalik uning ilmiy asoslanilishi ta'lim jarayonida mustahkamlanib boradi.

Bugungi tezkor davrda tarbiyadan og'ishi kuzatilayotgan o'smirlarning xatti-harakatlari baholanishida avvalo kattalarning ta'siri yuqoriligini e'tiborda tutish lozim. O'smir shaxsiga nisbatan oila muhitidagi be'tiborlik, faoliyatining nazoratga olinmasligi, bo'sh vaqtini o'tkazayotgan "referent guruhlari" bilan qiziqmaslik unda qonunbuzarlik xulqi shakllanishiga sabab bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda qonunbuzarlik xulqi delinkventlik xulqi sifatida talqin qilinadi. "Delinkvent" so'zi lotincha "xatti-harakat, gunohkor" ma'nosini anglatadi. Bu atama ma'nosini shaxsning g'ayriqonuniy xulqi, ya'ni muayyan shaxs tomonidan sodir etilgan xatti-harakat, jamiyat tartib-qoidalari, qabul qilingan qonunlarga itoat etmaslik, kishilarga va jamiyatga putur yetkazish va oxir-oqibatda, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi hodisa deb tushunish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, delinkvent xulq jamiyat hayotida amal qilinadigan tartib-qoidalarini buzishdir. G'ayriqonuniy xulq-atvorni namoyon etuvchi shaxs delinkvent shaxs deb ataladi. Delinkvent shaxs xulq-atvorida ijtimoiy tartib-qoidalarini buzishga yo'naltirilgan moyillik mavjud bo'ladi. Bugungi ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohotlar mazmunida ana shunday xulqiy og'ishlarning ijtimoiy sabablarini o'rganish, oldini olish va korrektsiyalash ko'zda tutilgan. Buning uchun oila, maktab uzviyligini to'g'ri tashkillashtirish lozim. Bo'sh vaqt qadriyatining bola tomonidan to'g'ri anglanishi uni o'z ustida ishlashini ta'minlabgina qolmay, noto'g'ri faoliyatdan cheklanishini ham hosil qiladi. Bo'sh vaqt qadriyatiga bo'lgan munosabat avvalo oila tarbiyasida shakllantirilishi, so'ngra ta'lim tizimidagi olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda mustahkamlanib nazoratga olinishi zarur. Umumta'lim maktablarning yuqori sinf o'quvchilari o'smirlik pallasidagi idrok xususiyatlarini mukammal takomillashtirish yoshida bo'lganligi bois, ularda turli zararli xulq ko'nikmalarini taqlid

tariqasida o'zlashtirishga moyilligi yuqoriligini kuzatish mumkin. Bu borada bugungi kundagi turli mavzulardagi filmlar ham taqlidga yetaklovchi omil bo'lib ta'sir qiladi. Biz farzandlarimizni ma'lumotdan, axborotdan cheklay olmaymiz, balki uni tahlil qilishni o'rgata olish imkoniga egamiz. Buning uchun ota-onalar sifatida bizning o'zimizda axborot madaniyati, ma'lumotlarni saralay olish o'quvi bo'lishi zarur. Qachonki ota-onalar o'z farzandlariga axborotni ijobiy saviyada, salomatligini tiklashga, ruhiyatini sog'lomlashtirishga, ma'naviy kamolotiga xizmat qilishini e'tiborga olib murojaat qilishga o'rgatar ekan, ko'r-ko'rona turli ma'lumotlar ta'siriga tushib qolish, unga taqlid qilish xavfidan himoyalay olgan bo'ladilar va ijtimoiy immunitetni shakllantiradilar. Bu esa avvalo oila muhitidagi sog'lom munosabatlarda, bola shaxsiga bo'lgan yetarlicha e'tiborda shakllantiriladi. Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'iy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'lik bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqdaki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati globallashtirish jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zumda qimmatini yuqotishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Har qanday ma'lumotni ongli tahlil qila olish uchun, kishilarda axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi esa, axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat uchun g'arazli manfaatlar doirasidagi geoxabarlar ta'siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste'mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Masalan, internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, "biz ba'zan g'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat". Zero, kishilarda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Lekin aksariyat hollarda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi. Madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlanish sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniqlik, o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi".

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda tezkor ta'sir etish kuchiga ega bo'lgan ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan g'arb dunyosida keng

tarqalib borayotgan egosentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlikni targ'ib qiluvchi "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari ham zamonaviy aloqa vositalari orqali targ'ib qilinmoqda.

Shuning uchun, hozirgi davrda aholimiz, ayniqsa, yoshlarimizning axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologiyasini mukammal darajada o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur.

Har bir insonni voyaga yetish jarayonida ijtimoiy-ma'naviy modeli shakllanib, bu uning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida muhim ta'sir ahamiyatiga egadir. Yuqorida keltirilgan "yangicha san'at"dan foydalanish, taqlid qilish esa shaxsning ijtimoiy-ma'naviy modelini o'zgarishiga, o'z-o'ziga beradigan bahosini ortishiga, "Men" tushunchasini anglanmagan mazmunda ifodalanishiga sabab bo'ladi. Shaxsni o'z tashqi qiyofasini, badani shakl-shamoyilini sun'iy o'zgartirishi o'ziga nisbatan e'tiborni va hurmatni anglanmagan tarzda ekanligidan darak beradi. Ongli, sog'lom fikr yurituvchi insonlar bu tarzda o'z tanasini ijod obyektiga aylanishiga yo'l qo'ymaydilar.

"Body-art"ni qo'llashni ma'qul ko'ruvchilar psixologik tiplarga ko'ra o'ta hissiy ta'sirchanligi yuqori bo'lgan va agressiv xulq shakllariga ega toifadagi shaxslardir. Bunda shaxs o'z xohish-istaklarini etnik stereotiplar tizimi bilan identifikatsiya qilish imkoniga ega bo'lmaydi. Bunday holatni mavjud bo'lishi insonda ijtimoiy turmush tarzi haqidagi tasavvurlarining noto'g'i idrok qilinishiga va xulq og'ishlarini keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Body-art shakllariga bo'lgan qiziqishni ortishi shaxsni ongida virtual hayot tizimini namoyon etishi bilan birgalikda uni jamiyatdan "begonalashuvi"ga ham olib keladi.

Ayniqsa, bu holatga jamiyatda endigina o'z ijtimoiy o'rnini topishga harakat qilayotgan yoshlar guruhida moyillikning yuqoriligini ta'kidlash joiz. Zero, inson salomatligi ichki va tashqi olam bilan mutanosiblikda ekanligini ta'sirchan usullar orqali yoshlarga yetkazib bera olish, bunday yoqimsiz harakatlarning oldini olishdagi birlamchi choralardan sanaladi.

Bugungi davrda har bir ota-ona kibermadaniyat o'quviga ega bo'lmog'i zarur. Bola faoliyatini nazoratsiz qoldirish, undagi o'zgarishlar sababini tahlil qila olmaslik, yoshiga monand tarzda munosabatda bo'lmaslik salbiy xulq-atvor shakllanishiga imkon yaratadi. Deviant xulq bola shaxsiga e'tiborsizlik, uning qiziqishlarini inobatga olmaslik va nazoratsiz qoldirish, ertangi kuniga nisbatan qiziqish va umid uyg'ota olmaslik kabi qator salbiy motivlar asosida shakllanadi. Bu motivlar esa faqatgina oilada yoki ta'lim tizimida emas, har ikkala tarbiya uchog'ining uzviyligi ta'minlangandagina bartaraf etilishi mumkin. Farzandlarga oilada ta'lim tarbiya berilayotganda ota-onalarning o'zlari ular uchun namuna, ibrat bo'lishlari kerak. Shuning uchun sog'lom fikrlashni insonlar qalbiga va ongiga singdirishni eng avvalo oiladan boshlash kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikka axborot tarmoqlari, notiqlik klublari, jamoat tashkilotlari orqali uzatish mumkin. Targ'ibot va tashviqot ham ta'lim-tarbiyaning bir ko'rinishidir, agarda to'g'ri targ'ib qilinsa, insonlarni buzg'unchi g'oyalardan asraydi. Oiladagi mavjud muhit shaxs xulqi shakllanishida yoki xulqiy og'ishlarning yuzaga kelishida kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biz deviant xulq motivlarini o'rganganimizda "Deviant xulqning yuzaga kelish sababi nimada?" degan savolga respondentlarning aksariyati ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolarning mavjudligi, farzand faoliyatini nazorat qilmasligi, bola shaxsiga noto'g'ri muomala va ta'sirda bo'lish, doimo birga bo'ladigan o'rtoqlari va o'zi uchun ideal sifatida tanlagan timsollari xulqiga taqlid qilish kabi sabablarni e'tirof etdilar. Oila muhitidagi nosog'lom psixologik iqlim bolaning oiladan bezishiga, turli noqonuniy harakatlar bilan mashg'ul bo'lishiga olib keladi. Bu turdagi oilalarda olib boriladigan ta'lim va tarbiya uzviyligi ijtimoiy mazmunni o'zida to'la aks ettirishi lozim. Avvalo ota-onalar psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etish zarur. Ota-onalar maktabini mahalla jamoatchiligida tashkil etish orqali

samarali natijalarga erishish mumkin. Ota-onaning huquqiy ongi bola shaxsi tarbiyasiga oqilona yondashuvni ta'minlaydi. Bundan tashqari, milliy an'analarning oila tarbiyasida va ta'lim jarayonida muvofiqlashtirib borilishi bolani jamiyatga, oilasiga va ertangi kuniga fidoyi inson bo'lib shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu boradagi faoliyat turli ijtimoiy jamoatchilik, ta'lim maskanlari tizimida tashkil etiladigan ijtimoiy, ma'naviy dasturlar qamrovida aks etishi lozim. Oiladan tashqari bo'lgan ijtimoiy maskanlar bola shaxsi uchun kuchli ta'sir ahamiyatiga ega bo'lib, o'z xulqini o'zgaralar bilan taqqoslash imkonini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2018.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.
3. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. T: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2010
4. E.G'oziyev. Pedagogika, psixologiya asoslari. T: Universitet 1997.
5. E.G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T: Universitet 2001.
6. Mamashokirov S. va boshqalar. O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. (O'quv-uslubiy qo'llanma). –T.: 2004.
7. Otamurodov Gloaballashuv va milliy ma'naviy xavsizliklik. –T.: «O'zbekiston», 2013.